



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

**2026-YIL / AVGUST / 8-SON,
I-QISM**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
I-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'RTA DAROMADLI MAMLAKATLARDA INNOVATSION XARAJATLARNING EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASIGA TA'SIRI	20
Karimova Xulkar Raxmanali qizi Jalg'ashova Nazira Umbet qizi	
MINTAQADA SANOAT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI	26
Mamedov Ko'palboy Masharipovich	
TA'LIM XIZMATLARINI BOSHQARISHDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA SIFATNI TA'MINLASH	30
Umarov Ravshanjon Gafurovich	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	36
Mamurov Doniyor Eldorovich	
MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA YASHIL INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH TAMOIYILLARI VA USULLARI	43
Ro'zimov Doniyor Soporboy o'g'li	
TOSHKENT METROPOLITENI SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH DARAJASINING DINAMIKASI VA UNI XALQARO TAJRIBA BILAN QIYOSIY BAHOLASH	49
Mansurov Xamrokul Ilxomovich	
ЦИФРОВАЯ САМООРГАНИЗАЦИЯ БУДУЩИХ МЕНЕДЖЕРОВ КАК ФАКТОР ЭФФЕКТИВНОСТИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ	56
Мирвосикий Хилола Хабибулла кизи	
XORAZM VILOYATIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING ILMIY-AMALIY TAHLILI	64
Z.Sh. Matniyozova	
DEVELOPMENT MECHANISMS OF EMBEDDED FINANCE SERVICES IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN BASED ON OPEN BANKING	69
Khurramova Fotima Bakhodir qizi	
IMPROVING THE PRACTICE OF FINANCING INVESTMENT PROJECTS THROUGH SYNDICATED LOANS PROVIDED BY COMMERCIAL BANKS	76
Xudaynazarov Davrbek Abdullayevich	
TASHQI SAVDO DINAMIKASI VA BANK MOLİYAVIY XAVFSIZLIGI: O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI MISOLIDA AMALIY TAHLIL	83
Babadjanov Shuxrat Atxamovich	
GREEN LENDING PRACTICED AMONG UZBEK COMMERCIAL BANKS: SURVEY- BASED ASSESSMENT OF READINESS AND CONSTRAINTS	90
Avazov Azizbek Ashurali o'g'li	
"YANGI O'ZBEKISTON – 2030" STRATEGIYASI DOIRASIDA IQTISODIY O'ZGARISHLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI	96
Amirov Otabek Xudoyberdi o'g'li	
BARQAROR YASHIL INVESTITSİYALARNING QAYTA TIKLANUVCHI ENERGETIKA RIVOJIGA ROLINI VA HISSASINI TAHLIL QILISH: O'ZBEKISTON MISOLIDA	101
Zilola Kazakova	
HUDUD SANOATIDA KAPITAL VA MEHNAT RESURLARI SAMARADORLIGINI KOB-B-DUGLAS MODELİ YORDAMIDA BAHOLASH	113
Turayev Baxrom Ergashevich	



“MAHALLA BANKIRI” INSTITUTI DAVLATBANK HAMKORLIGINING OPERATSION BO‘G‘INI SIFATIDA: SAMARADORLIK MEZONLARI VA OPTIMAL YUKLAMA PARAMETRLARI	120
Nurmuratov Azamat Mamarizo o‘g‘li	
SHAHAR JAMOAT TRANSPORTI YO‘NALISHLARINING AHOLI EHTIYOJLARIGA MOSLIGINI TADQIQ ETISH (URGANCH SHAHRI MISOLIDA)	127
Abdullayeva Shahzodaxon Fazliddin qizi	
O‘ZBEKISTONDA QISHLOQ XO‘JALIGINI RO‘YXATGA OLISHNING AGRAR IQTISODIY O‘SISHNI TA‘MINLASHDAGI INSTITUTSIONAL ROLI	132
Shohujayeva Zebo Safojevna	
Xolov Javlonbek Davronovich	
UZBEKISTAN KAK AKADEMICHESKIIY XAB VYSHEGO OBRADOVANIYA CENTRALNOY AZIYI	138
Эргашева Шахло Тургуновна	
БУХГАЛТЕРСКИЙ УЧЕТ КАК ИНФОРМАЦИОННАЯ ОСНОВА ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ ПРЕДПРИЯТИЯ	146
Маннапова Раъно Абировна	
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI MOLIVAVIY, INSTITUTSIONAL VA RAQAMLI QO‘LLABQUVVATLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN RAQAMLI MODELLARI: “3M-PLATFORMA” VA “SMART YOUTH BUSINESS ECOSYSTEM” KONSEPSIYALARI	154
Xojiyev Ma‘murjon Muxsinjon o‘g‘li	



YOSHLAR TADBIRKORLIGINI MOLIYAVIY, INSTITUTSIONAL VA RAQAMLI QO‘LLAB-QUVVATLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN RAQAMLI MODELLARI: “3M-PLATFORMA” VA “SMART YOUTH BUSINESS ECOSYSTEM” KONSEPSIYALARI

Xojiyev Ma'murjon Muxsinjon o'g'li
Guliston davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0009-0009-5471-642X
mamik07@mail.ru

Abstract. This article examines the author's integrated models for the financial, institutional, and digital support of youth entrepreneurship: the “3M-Platform” and the “Smart Youth Business Ecosystem.” The relevance of the study lies in the fact that support mechanisms are managed through separate programs and unconnected information systems, resulting in the duplication of resource expenditures. The purpose of the study is to develop the “3M-Platform,” which integrates three independent areas into a single adaptive platform, and the “Smart Youth Business Ecosystem,” which incorporates an artificial intelligence-based scoring mechanism. The study employed a systems approach, digital architecture modelling, and comparative analysis. The structural components of both models and their interrelationships were systematized and compared with traditional fragmented digital services. According to the author's calculations, implementing the models could reduce service delivery time by 42%, increase the targeting of resources by 34%, and more than double the speed of decision-making. Comparison with international practices demonstrated the models' advancement in transforming AI-based scoring into a direct resource-allocation tool. The findings are of practical significance for government bodies and financial institutions.

Keywords: youth entrepreneurship, artificial intelligence, Big Data, digital platform, 3M-Platform, Smart Youth Business Ecosystem, adaptive management.

Annotatsiya. Maqolada yoshlar tadbirkorligini moliyaviy, institutsional va raqamli qo'llab-quvvatlashning integratsiyalashgan mualliflik modellari — “3M-Platforma” va “Smart Youth Business Ecosystem” tadqiq etilgan. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, qo'llab-quvvatlash mexanizmlari alohida dasturlar va o'zaro bog'lanmagan axborot bazalari orqali boshqarilishi resurslarning takroriy sarflanishiga olib keladi. Tadqiqotning maqsadi uchta mustaqil yo'nalishni yagona adaptiv platformaga integratsiyalovchi “3M-Platforma” hamda sun'iy intellekt asosidagi skoring mexanizmini o'z ichiga olgan “Smart Youth Business Ecosystem” modellarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda tizimli yondashuv, raqamli arxitekturani modellashtirish va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Har ikkala modelning tarkibiy komponentlari va o'zaro bog'liqligi tizimlashtirilib, an'anaviy parchalangan raqamli xizmatlar bilan taqqoslandi. Muallif hisob-kitoblariga ko'ra, modellarni joriy etish xizmatlardan foydalanish muddatini 42 foizga qisqartirishi, resurslarning manzilliligini 34 foizga oshirishi hamda qarorlar qabul qilish tezligini ikki baravardan ko'proq oshirishi mumkin. Xalqaro tajriba bilan taqqoslash sun'iy intellekt asosidagi skoringni bevosita resurslarni taqsimlash vositasiga aylantirish jihatidan modellarning ilg'orligini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari davlat organlari va moliyaviy institutlar uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: yoshlar tadbirkorligi, sun'iy intellekt, Big Data, raqamli platforma, 3M-Platforma, Smart Youth Business Ecosystem, adaptiv boshqaruv.

Аннотация. В статье исследованы авторские интегрированные модели финансовой, институциональной и цифровой поддержки молодёжного предпринимательства — «3М-Платформа» и «Smart Youth Business Ecosystem». Актуальность исследования обусловлена тем, что механизмы поддержки управляются посредством отдельных программ и несвязанных информационных систем, что приводит к дублированию расходов ресурсов. Цель исследования заключается в разработке



«3M-Платформы», интегрирующей три самостоятельных направления в единую адаптивную платформу, а также модели «Smart Youth Business Ecosystem», включающей механизм скоринга на основе искусственного интеллекта. В исследовании использованы методы системного подхода, моделирования цифровой архитектуры и сравнительного анализа. Структурные компоненты обеих моделей и их взаимосвязь были систематизированы и сопоставлены с традиционными фрагментированными цифровыми услугами. Согласно расчётам автора, внедрение моделей может сократить время получения услуг на 42 %, повысить адресность распределения ресурсов на 34 % и более чем в два раза увеличить скорость принятия решений. Сравнение с международной практикой продемонстрировало преимущества моделей с точки зрения преобразования скоринга на основе искусственного интеллекта в непосредственный инструмент распределения ресурсов. Результаты исследования имеют практическое значение для государственных органов и финансовых институтов.

Ключевые слова: молодёжное предпринимательство, искусственный интеллект, большие данные, цифровая платформа, 3M-Платформа, Smart Youth Business Ecosystem, адаптивное управление.

KIRISH

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi davlat boshqaruvining barcha sohalarida, jumladan, yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash tizimida ham muhim o'zgarishlarni taqozo etmoqda. Sun'iy intellekt, Big Data va elektron platformalar texnologiyalari davlat organlariga nafaqat resurslarni taqsimlash, balki ularning iqtisodiy natijadorligini real vaqt rejimida kuzatish hamda boshqaruv qarorlarini avtomatik ravishda moslashtirish imkonini bermoqda. O'zbekistonda yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash amaliyotida mazkur texnologik imkoniyatlardan yanada tizimli va integratsiyalashgan tarzda foydalanish zarurati mavjud bo'lib, bu mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Amaldagi tizimda moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash hamda raqamli xizmatlar turli davlat organlari va mustaqil axborot tizimlari orqali amalga oshiriladi. Ushbu yo'nalishlarni o'zaro integratsiyalash xizmatlardan foydalanish jarayonini yanada soddalashtirish, davlat organlari o'rtasida ma'lumot almashinuvini takomillashtirish hamda diagnostika natijalaridan takroriy foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, biznes loyihalarini baholashda raqamli tahlil va sun'iy intellektga asoslangan mezonlardan foydalanish qarorlarning xolisligi va aniqligini oshirish imkonini beradi.

Tadqiqot obyekti — O'zbekiston Respublikasida yoshlar tadbirkorligini moliyaviy, institutsional va raqamli qo'llab-quvvatlash tizimi, jumladan, davlat xizmatlarini ko'rsatuvchi elektron platformalar.

Tadqiqot predmeti — sun'iy intellekt, Big Data va real vaqt rejimidagi monitoring texnologiyalari asosida qo'llab-quvvatlash vositalarini integratsiyalash va adaptiv boshqarish bilan bog'liq tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar.

Tadqiqotning maqsadi — yoshlar tadbirkorligini moliyaviy, institutsional va raqamli qo'llab-quvvatlashga mo'ljallangan integratsiyalashgan "3M-Platforma" hamda "Smart Youth Business Ecosystem" mualliflik modellari ishlab chiqish va ularning amaliy samaradorligini asoslab berishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: birinchidan, raqamli tadbirkorlik va aqli boshqaruv — Smart Governance nazariyasiga oid xorijiy va mahalliy adabiyotlarni tahlil qilish; ikkinchidan, moliyaviy, institutsional va raqamli mexanizmlarni yagona platformaga integratsiyalovchi "3M-Platforma" modelini ishlab chiqish; uchinchidan, sun'iy intellekt asosidagi skoring va adaptiv resurs taqsimotini o'z ichiga olgan "Smart Youth Business Ecosystem" modelini shakllantirish; to'rtinchidan, har ikkala modelning kutilayotgan iqtisodiy samaradorligini an'anaviy tizim bilan qiyoslash; beshinchidan, modellarni amaliyotga joriy etish imkoniyatlari va cheklovlarini asoslash.

Maqola quyidagi tuzilishga ega: ikkinchi bo'limda mavzuga oid adabiyotlar sharhi keltirilgan; uchinchi bo'limda tadqiqot metodologiyasi bayon etilgan; to'rtinchi bo'limda modellarning amaliy tahlili rasm va jadvallar orqali yoritilgan; beshinchi bo'limda xulosa va takliflar keltirilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli tadbirkorlik nazariyasi so'nggi o'n yillikda iqtisodiy tadqiqotlarning markaziy yo'nalishlaridan biriga aylandi. Sonali Nambisan raqamli tadbirkorlikni an'anaviy tadbirkorlikdan farqli ravishda, texnologik platformalar orqali resurslar, ma'lumotlar va imkoniyatlardan foydalanish ko'lamini kengaytgan yangi paradigma sifatida ta'riflaydi [1]. Erik Brinyolfsson va Endryu MakAfi "ikkinchi mashina davri" konsepsiyasi orqali sun'iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalarining iqtisodiy institutlar faoliyatini tubdan o'zgartirishini asoslab



bergan. Jumladan, ular davlat xizmatlarini raqamlashtirish boshqaruv xarajatlarini sezilarli darajada qisqartirishi mumkinligini ko'rsatgan [2].

Aqlli boshqaruv — Smart Governance nazariyasi doirasida davlat xizmatlarini raqamlashtirish, sun'iy intellekt yordamida qarorlar qabul qilish jarayonlarini avtomatlashtirish va real vaqt monitoringi orqali davlat boshqaruvi sifatini oshirish masalalari keng yoritilgan. OECD tomonidan ishlab chiqilgan raqamli davlat boshqaruviga oid hisobotlarda davlat xizmatlarini yagona elektron platformaga integratsiyalash amaliyoti turli mamlakatlar tajribasi asosida tahlil qilingan. Biroq mazkur hisobotlarda yoshlar tadbirkorligiga xos moliyaviy, institutsional va raqamli yo'nalishlarning integratsiyasi alohida tadqiqot obyekti sifatida batafsil ko'rib chiqilmagan [3]. Jahon banki tomonidan GovTech konsepsiyasi doirasida davlat xizmatlarini raqamlashtirish orqali institutsional samaradorlikni oshirish yo'llari asoslab berilgan [4].

Sun'iy intellektning moliyaviy qarorlar qabul qilishdagi o'rniga bag'ishlangan qator tadqiqotlar ham mavjud. Xususan, mashinaviy o'qitish algoritmlariga asoslangan kredit skoringi tizimlari an'anaviy usullarga nisbatan kredit tavakkalchiligini yanada aniqroq baholash imkonini berishi ko'rsatilgan [5]. Biroq bunday tizimlar, asosan, yirik moliyaviy institutlar amaliyotida qo'llanilib, davlat tomonidan yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashning institutsional va ijtimoiy jihatlarini to'liq qamrab olmaydi.

Ekotizim yondashuvi nuqtayi nazaridan Global Entrepreneurship Monitor — GEM va Startup Genome tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan tadbirkorlik ekotizimi indeksleri turli mamlakatlardagi startup ekotizimlarining raqobatbardoshligini baholash imkonini beradi. Biroq ushbu indekslar milliy darajadagi umumiy holatni tavsiflab, davlat tomonidan yagona raqamli platforma orqali individual biznes loyihalarini real vaqt rejimida boshqarish mexanizmini bevosita taklif etmaydi [6].

Mahalliy tadqiqotchilar orasida S.S. Gulyamov va D.U. Mamadiyarov raqamli texnologiyalarning turli tarmoqlarda qo'llanilish samaradorligini tahlil qilib, raqamli platformalarning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari samaradorligiga ijobiy ta'sirini asoslab bergan [7]. Shuningdek, "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida davlat xizmatlarini raqamlashtirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Mazkur strategiya yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi moliyaviy, institutsional va raqamli mexanizmlarni yanada integratsiyalash uchun muhim asos yaratadi [8].

Yuqoridagi tahlildan ko'rinadiki, raqamli tadbirkorlik va aqlli boshqaruv nazariyasining Smart Governance, GovTech, kredit skoringi va ekotizim indeksleri kabi yo'nalishlari alohida-alohida yetarlicha rivojlangan bo'lsa-da, moliyaviy, institutsional va raqamli mexanizmlarni sun'iy intellektga asoslangan yagona adaptiv platformaga integratsiyalovchi hamda real vaqt monitoringi orqali resurslarni natijadorlikka muvofiq qayta taqsimlovchi kompleks yechimlar yetarli darajada tadqiq etilmagan. Muallif yondashuvining o'ziga xos jihati moliyaviy, institutsional va raqamli yo'nalishlar integratsiyasini sun'iy intellekt asosidagi skoring orqali bevosita resurslarni taqsimlash vositasiga aylantirishdan iborat bo'lib, bu tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi tizimli yondashuv, raqamli arxitekturani modellashirish hamda qiyosiy tahlil usullariga asoslanadi. Tizimli yondashuv orqali moliyaviy, institutsional va raqamli qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining o'zaro uzviy bog'liqligi aniqlandi. Raqamli arxitekturani modellashirish usuli orqali "3M-Platforma" va "Smart Youth Business Ecosystem" modellarning tarkibiy komponentlari hamda ishlash tamoyillari ishlab chiqildi. Qiyosiy tahlil usuli esa har ikkala modelning kutilayotgan samaradorligini an'anaviy parchalangan tizim bilan taqqoslash imkonini berdi (3-jadval). Har ikkala model o'zaro bir-birini to'ldiruvchi, biroq alohida darajalarga — mikro va makro darajalarga mo'ljallangan yechimlar sifatida ishlab chiqilgan.

"3M-Platforma" modelining nazariy asosini moliyaviy, institutsional va raqamli qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining o'zaro uzviy bog'liqligi tashkil etadi (1-rasm). Amaldagi tizimda ushbu uch yo'nalish alohida dasturlar, turli davlat organlari va mustaqil axborot bazalari orqali boshqariladi. Mazkur yo'nalishlarni yanada integratsiyalash resurslarning takroriy taqsimlanishini kamaytirish va qarorlar qabul qilish jarayonini tezlashtirish imkonini beradi.

Modelning birinchi komponenti — moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmi imtiyozli kreditlar, subsidiyalar, grantlar, kafillik mexanizmlari va natijaga asoslangan rag'batlantirish vositalarini yagona moliyaviy paket sifatida shakllantiradi.

Ikkinchi komponent — institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmi vazirlik va idoralar, tijorat banklari, oliy ta'lim muassasalari, biznes-inkubatorlar hamda akselerator markazlarini yagona institutsional tarmoqqa birlashtiradi.

Uchinchi komponent — raqamli qo'llab-quvvatlash mexanizmi barcha xizmatlarni yagona elektron platforma orqali to'liq raqamli shaklda amalga oshirishni nazarda tutadi. Bunda sun'iy intellekt elementlari har bir tadbirkorning faoliyatini real vaqt rejimida tahlil qilib, individual tavsiyalarni shakllantiradi.



1-rasm. “3M-Platforma” integratsiyalashgan boshqaruv modeli¹

Modelning markazida Integratsiyalashgan 3M boshqaruv platformasi joylashgan bo'lib, u moliyaviy, institutsional va raqamli tizimlardan kelayotgan ma'lumotlarni yagona axborot maydonida birlashtiradi hamda resurslarni taqsimlash, loyihalarni monitoring qilish, natijalarni baholash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi markaz vazifasini bajaradi. Modelning muhim uslubiy jihati shundaki, unda qo'llab-quvvatlash jarayoni statik boshqaruv tamoyilidan adaptiv boshqaruv tamoyiliga o'tkaziladi: resurslar tadbirkor erishayotgan natijalar asosida qayta taqsimlanadi.

“Smart Youth Business Ecosystem” — “Aqli yoshlar biznes ekotizimi” modeli yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish jarayonidagi barcha ishtirokchilar, resurslar va boshqaruv mexanizmlarini yagona raqamli platforma asosida integratsiyalashga qaratilgan kengroq konseptual yondashuv bo'lib, u yetti bosqichli tizim sifatida shakllantirilgan (2-rasm).

Birinci bosqich — kiruvchi resurslar, ya'ni inputlar bo'lib, yoshlarning innovatsion g'oyalari, startap tashabbuslari, inson kapitali, moliyaviy resurslar, institutsional infratuzilma va raqamli texnologiyalar tizimning asosiy kirish elementlarini tashkil etadi.

Ikkinchi bosqich — raqamli integratsiya bo'lib, unda barcha kiruvchi resurslar yagona elektron platforma orqali birlashtiriladi. Ushbu platforma nafaqat ma'lumotlar bazasi, balki boshqaruv qarorlarini qabul qilishning intellektual markazi vazifasini ham bajaradi.



2-rasm. “Smart Youth Business Ecosystem”
(Aqli yoshlar biznes ekotizimi) modeli²

Ekotizimning markaziy, ya'ni uchinchi bosqichida barcha ishtirokchilar yagona raqamli platforma orqali tizimga ulanadi hamda sun'iy intellekt asosidagi skoring mexanizmi yordamida biznes g'oyalarning iqtisodiy


1 Muallif ishlanmasi

2 Muallif ishlanmasi



salohiyati baholanadi (3-rasm). Bunday yondashuv resurslarni subyektiv qarorlar asosida emas, balki iqtisodiy samaradorlik va istiqboldagi rivojlanish ko'rsatkichlari asosida taqsimlash imkonini yaratadi.

To'rtinchi bosqichda moliyaviy, institutsional va raqamli qo'llab-quvvatlash mexanizmlari yagona boshqaruv sikliga birlashtiriladi. Beshinchi bosqichda esa biznesni amalga oshirish, ya'ni ishlab chiqarish, bozorga kirish va asosiy samaradorlik ko'rsatkichlarini — KPIlarni real vaqt rejimida monitoring qilish jarayonlari amalga oshiriladi.



3-rasm. Sun'iy intellekt asosidagi adaptiv resurs taqsimoti qarorlar qabul qilish algoritmi³

Modelning oltinchi bosqichi adaptiv boshqaruv mexanizmi bo'lib, monitoring natijalariga ko'ra qo'llab-quvvatlash vositalari muntazam ravishda qayta ko'rib chiqiladi. Yuqori natija ko'rsatayotgan loyihalarga qo'shimcha investitsiyalar, eksport grantlari va soliq imtiyozlari taqdim etiladi, kutilgan natijalarga erisha olmayotgan subyektlar esa mentorlik, qayta o'qitish yoki konsalting dasturlariga yo'naltiriladi. Yettinchi, yakuniy bosqichda startaplar sonining ko'payishi, bandlik darajasi, eksport salohiyati, soliq tushumlari va daromadlarning o'sishi kabi natijalar shakllanadi. Modelning tashqi konturi makroiqtisodiy, huquqiy, texnologik va ijtimoiy omillar bilan uzviy bog'langan bo'lib, bu uni ochiq adaptiv tizimga aylantiradi.

Har ikkala modelning ilmiy yangiligi uchta fundamental yondashuvning uyg'unlashtirilganligida namoyon bo'ladi. Birinchidan, barcha resurslar yagona raqamli platformaga integratsiyalashtiriladi. Ikkinchidan, qo'llab-quvvatlash vositalari biznesning rivojlanish bosqichiga muvofiq adaptiv ravishda boshqariladi. Uchinchidan, monitoring va tahlil natijalari asosida boshqaruv qarorlari muntazam takomillashtirib boriladi. Mazkur modellarni ishlab chiqish, tizimlashtirish va maqola matnini tayyorlash jarayonida sun'iy intellekt vositalaridan cheklangan darajada, ya'ni 10 foizgacha foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ishlab chiqilgan modellarning amaliy jihatdan asoslanganligini ko'rsatish maqsadida tahlil uch bosqichda amalga oshirildi. Birinchidan, "3M-Platforma" modelining uchta tarkibiy komponenti va ularning kutilayotgan samaralari jadval ko'rinishida tizimlashtirildi. Ikkinchidan, "Smart Youth Business Ecosystem" modelining yetti bosqichi tavsiflandi. Uchinchidan, har ikkala modelning kutilayotgan qiyosiy samaradorligi an'anaviy parchalangan raqamli xizmatlar tizimi bilan taqqoslandi.

3 Muallif ishlanmasi



1-jadval

“3M-Platforma” modelining tarkibiy komponentlari

Komponent	Asosiy instrumentlar	Kutilayotgan iqtisodiy samara
1-M: Moliyaviy qo'llab-quvvatlash	Imtiyozli kredit, subsidiya, grant, kafillik, ventur kapital, natijaga asoslangan rag'bat	Mablag'larning iqtisodiy qaytimi oshadi, kredit portfeli sifati yaxshilanadi
2-M: Institutsional qo'llab-quvvatlash	Vazirliklar, banklar, OTM, inkubatorlar, akseleratorlar, Savdo-sanoat palatasi	Vakolatlar aniq taqsimlanadi, boshqaruv samaradorligi ortadi
3-M: Raqamli qo'llab-quvvatlash	Yagona elektron platforma, AI tahlili, elektron ariza va monitoring	Inson omili ta'siri kamayadi, xizmat xarajatlari qisqaradi
Markaziy: Integratsiyalashgan 3M platformasi	Yagona axborot maydoni, koordinatsion boshqaruv markazi	Resurslarning manzilligi va qaytuvchanligi kompleks oshadi


1-jadvalda keltirilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, “3M-Platforma” modelining har bir komponenti aniq vositalar majmuasi va kutilayotgan iqtisodiy samaraga ega. Uchta komponentning markaziy platforma orqali integratsiyalashuvi (1-rasm) alohida boshqarilayotgan mexanizmlarni yagona axborot-boshqaruv maydoniga birlashtirib, resurslarning takroriy taqsimlanishini kamaytirish hamda qarorlar qabul qilishdagi kechikishlarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

2-jadval

“Smart Youth Business Ecosystem” modelining yetti bosqichli tarkibi

Bosqich	Mazmuni	Asosiy texnologiya/instrument
1. Kiruvchi resurslar	Innovatsion g'oyalar, inson kapitali, moliyaviy va raqamli resurslar	Resurslar bazasi
2. Raqamli integratsiya	Barcha resurslarni yagona elektron platformada birlashtirish	Yagona elektron platforma
3. AI skoring	Biznes g'oyalarining iqtisodiy salohiyatini baholash	Sun'iy intellekt, mashinaviy o'qitish
4. Uch komponent sinergiyasi	Moliyaviy, institutsional, raqamli qo'llab-quvvatlashni birlashtirish	Integratsiyalashgan boshqaruv sikli
5. Biznesni amalga oshirish	Ishlab chiqarish, bozorga kirish, KPI monitoring	Real vaqt analitika tizimi
6. Adaptiv boshqarish	Natijaga qarab instrumentlarni qayta moslashtirish	Adaptiv qaror qabul qilish algoritmi
7. Yakuniy natijalar	Bandlik, eksport, soliq, daromad o'sishi	Natijadorlik indikatorlari (YSASI)

2-jadval va 2-rasmda keltirilgan “Smart Youth Business Ecosystem” modelining yetti bosqichli tahlili shuni ko'rsatadiki, model kiruvchi resurslardan yakuniy makroiqtisodiy natijalargacha bo'lgan to'liq zanjirni qamrab oladi. Bunda markaziy o'rinni sun'iy intellekt asosidagi skoring mexanizmi egallaydi. Aynan ushbu bosqichda resurslarni taqsimlashning subyektiv tamoyilidan obyektiv, ma'lumotlarga asoslangan tamoyilga o'tish amalga oshiriladi. 4-rasmda tasvirlangan adaptiv qaror qabul qilish algoritmi esa sun'iy intellekt asosidagi skoring natijalariga qarab ikkita muqobil yo'nalish mavjudligini ko'rsatadi.

**3-diagramma. “3M-Platforma” va “Smart Youth Business Ecosystem” modellarning kutilayotgan qiyosiy samaradorligi (muallif hisob-kitobi)****3-rasm. “3M-Platforma” va “Smart Youth Business Ecosystem” modellarning kutilayotgan qiyosiy samaradorligi⁴**

3-jadval.
An'anaviy parchalangan raqamli xizmatlar va taklif etilgan integratsiyalashgan modellarning qiyosiy tahlili⁵

Mezon	An'anaviy parchalangan tizim	"3M-Platforma" / "Smart Youth Business Ecosystem"
Xizmatlar boshqaruvi	Alohida-alohida davlat organlari va dasturlar	Yagona integratsiyalashgan platforma
Biznes loyihasini baholash	Ekspert komissiyasi, subyektiv mezonlar	Sun'iy intellekt asosidagi obyektiv skoring
Ma'lumotlar bazasi	Har bir institut o'z bazasini yuritadi	Yagona Big Data platformasi
Monitoring	Davriy, hisobot asosida	Real vaqt rejimidagi uzluksiz monitoring
Resurs taqsimoti	Standart, barcha uchun bir xil	Natijaga asoslangan adaptiv taqsimot
Qaror qabul qilish tezligi	Sekin, ko'p bosqichli byurokratik	Tezkor, avtomatlashtirilgan

3-jadvalda keltirilgan qiyosiy tahlil taklif etilgan modellar an'anaviy tizimdan oltita mezon bo'yicha tubdan farq qilishini ko'rsatadi. 3-rasmida keltirilgan muallif hisob-kitoblari ko'ra, modellarni joriy etish xizmatlardan foydalanish muddatini shartli 100 birlikdan 58 birlikkacha, ya'ni 42 foizga qisqartirishi, muvaffaqiyatsiz loyihalarni erta aniqlash darajasini 65 foizga, resurslarning manzillilik ko'rsatkichi — RI ni 34 foizga hamda qarorlar qabul qilish tezligini 110 foizga oshirishi mumkin.

Alohida ta'kidlash lozimki, har ikkala model bir-birini o'zaro to'ldiradi: "3M-Platforma" institutsional-texnologik integratsiyaning qanday amalga oshirilishini tavsiflasi, "Smart Youth Business Ecosystem" esa tadbirkorlikning butun hayotiy sikli qaysi ketma-ketlikda boshqarilishini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Taklif etilgan modellarni xalqaro tajriba bilan taqqoslash ularning Estoniyaning "e-Residency" va "X-Road" platformalari bilan muayyan o'xshashliklarga ega ekanligini ko'rsatadi. Biroq mazkur platformalarda aynan

⁴ Muallif hisob-kitobi

⁵ Muallif ishlanmasi



yoshlar tadbirkorligiga xos sun'iy intellekt asosidagi skoring va adaptiv resurslarni taqsimlash mexanizmlari alohida yo'nalish sifatida nazarda tutilmagan. Singapurning "Startup SG" dasturi va Janubiy Koreya tajribasida ham sun'iy intellekt asosidagi avtomatik skoring bilan bir qatorda ekspert baholash mexanizmlaridan keng foydalaniladi. Shu bilan birga, modellarni joriy etishda sun'iy intellekt asosidagi skoring tizimining algoritmik shaffofligini ta'minlash, ma'lumotlar maxfiyligini himoya qiluvchi huquqiy va texnik mexanizmlarni shakllantirish hamda mamlakat miqyosidagi raqamli infratuzilma darajasini hisobga olish zarur.

O'tkazilgan tadqiqot natijasida yoshlar tadbirkorligini moliyaviy, institutsional va raqamli qo'llab-quvvatlashga mo'ljallangan integratsiyalashgan "3M-Platforma" hamda "Smart Youth Business Ecosystem" mualliflik modellari ishlab chiqildi. "3M-Platforma" modelining ilmiy yangiligi uchta mustaqil yo'nalishni yagona adaptiv boshqaruv platformasiga integratsiyalashda namoyon bo'ladi. "Smart Youth Business Ecosystem" modeli esa butun tadbirkorlik ekotizimini sun'iy intellektga asoslangan yetti bosqichli adaptiv boshqaruv zanjiri sifatida tavsiflaydi.

Yuqoridagi natijalar asosida quyidagi amaliy takliflar shakllantirildi:

1. O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzurida "3M-Platforma" arxitekturasiga asoslangan yagona raqamli platformani pilot loyiha sifatida ishlab chiqish tavsiya etiladi.
2. Sun'iy intellekt asosidagi skoring tizimining algoritmik shaffofligini ta'minlovchi normativ-huquqiy standartlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq.
3. Ma'lumotlar maxfiyligini himoya qiluvchi kiberxavfsizlik mexanizmlarini platforma arxitekturasiga uni ishlab chiqishning dastlabki bosqichidanoq kiritish lozim.
4. Keyingi tadqiqotlarda taklif etilgan modellarni pilot hududlarda real ma'lumotlar asosida sinovdan o'tkazish, ularning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini baholash maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Nambisan S. Digital entrepreneurship: Toward a digital technology perspective of entrepreneurship // *Entrepreneurship Theory and Practice*. – 2017. – Vol. 41, No. 6. – P. 1029–1055. – DOI: 10.1111/etap.12254.
2. Brynjolfsson E., McAfee A. *The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies*. – New York: W.W. Norton & Company, 2014.
3. OECD. *Digital Government Review of Luxembourg: Towards More Digital, Innovative and Inclusive Public Services*. – Paris: OECD Publishing, 2022. – DOI: 10.1787/b623803d-en.
4. World Bank. *GovTech Maturity Index, 2022 Update: Trends in Public Sector Digital Transformation* [Elektron resurs]. – Washington, DC: World Bank, 2022. – URL: <https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/099035001132365997> (murojaat sanasi: 05.08.2026).
5. Berg T., Burg V., Gombović A., Puri M. On the rise of FinTechs: Credit scoring using digital footprints // *The Review of Financial Studies*. – 2020. – Vol. 33, No. 7. – P. 2845–2897. – DOI: 10.1093/rfs/hhz099.
6. Startup Genome, Global Entrepreneurship Network. *The Global Startup Ecosystem Report 2023*. – Startup Genome, 2023.
7. Gulyamov Saidasror S., Mamadiyarov D.U., Gulyamov Saidakhror S., Rasulova M.T. Application of digital technologies for ensuring agricultural productivity // *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*. – 2024. – Vol. 25. – P. 6–20. – URL: <https://journalzone.org/index.php/bjgesd/article/view/486> (murojaat sanasi: 05.08.2026).
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni [Elektron resurs]. – URL: <https://lex.uz/docs/7008256> (murojaat sanasi: 05.08.2026).
9. Global Entrepreneurship Monitor. *Global Entrepreneurship Monitor 2023/2024 Global Report: 25 Years and Growing* [Elektron resurs]. – London: Global Entrepreneurship Research Association, 2024. – URL: <https://www.gemconsortium.org/report/global-entrepreneurship-monitor-gem-20232024-global-report-25-years-and-growing> (murojaat sanasi: 05.08.2026).
10. Schumpeter J.A. *The Theory of Economic Development: An Inquiry into Profits, Capital, Credit, Interest, and the Business Cycle*. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1934.
11. Etzkowitz H., Leydesdorff L. The dynamics of innovation: From national systems and "Mode 2" to a Triple Helix of university–industry–government relations // *Research Policy*. – 2000. – Vol. 29, No. 2. – P. 109–123. – DOI: 10.1016/S0048-7333(99)00055-4.
12. OECD. *Inclusive Entrepreneurship Policies: Country Assessment Notes* [Elektron resurs]. – Paris: OECD, 2020. – URL: <https://www.oecd.org/cfe/smes/inclusive-entrepreneurship-policies-country-assessment-notes.htm> (murojaat sanasi: 05.08.2026).



13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi PQ-62-son "Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va bandligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori [Elektron resurs]. – URL: <https://lex.uz/docs/-7387025> (murojaat sanasi: 05.08.2026).
14. O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi. *Yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash dasturlari va amalga oshirilgan tadbirlar bo'yicha ma'lumotlar*: idoraviy statistik materiallar. – Toshkent, 2026.
15. Estonian Information System Authority. *Introduction of X-tee: Data Exchange Layer of the Estonian Information System* [Elektron resurs]. – Tallinn: RIA. – URL: <https://www.ria.ee/en/introduction-x-tee> (murojaat sanasi: 05.08.2026).
16. Enterprise Singapore. *Join Startup SG: Support for Startups* [Elektron resurs]. – Singapore: Enterprise Singapore. – URL: <https://www.enterprisesg.gov.sg/grow-your-business/partner-with-singapore/innovation-and-startups/join-startup-sg> (murojaat sanasi: 05.08.2026).
17. Ministry of SMEs and Startups of the Republic of Korea. *2023 Startup Trends* [Elektron resurs]. – Sejong: Ministry of SMEs and Startups, 2024. – 13 March. – URL: <https://www.mss.go.kr/site/eng/ex/bbs/View.do?bcldx=1048878&cbldx=244> (murojaat sanasi: 05.08.2026).
18. International Labour Organization. *Global Employment Trends for Youth 2022: Investing in Transforming Futures for Young People*. – Geneva: International Labour Office, 2022. – 297 p. – DOI: 10.54394/QSMU1809.
19. Audretsch D.B. Entrepreneurship capital and economic growth // *Oxford Review of Economic Policy*. – 2007. – Vol. 23, No. 1. – P. 63–78. – DOI: 10.1093/oxrep/grm001.
20. KfW Research. *KfW SME Panel 2023*. – Frankfurt am Main: KfW Bankengruppe, 2023. – 34 p. – URL: <https://www.kfw.de/PDF/Download-Center/Konzernthemen/Research/PDF-Dokumente-KfW-Mittelstandspanel/PDF-Dateien-Mittelstandspanel-%28EN%29/KfW-SME-Panel-2023.pdf> (murojaat sanasi: 05.08.2026).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>